

MEDIADAGI BUZG'UNCHI G'OYALARGA QARSHI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH

Abdujalilov Ahadxon Akmalxon o'g'li

Yangiqorg'on tumani 3-sonli umumiy o'rta maktab psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7961991>

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich aytganlaridek: “.. biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi”[1].

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy axborot vositalaridan unumli foydalanish hozirgi zamonning talabidir. Ayniqsa, axborot makoniga aylangan internet tarmog'i, bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Internet tarmog'i haqida ayrim ma'lumotlarga razm solsak: statista.com saytida J.Clement tomonidan chop etilgan ma'lumotlarga qaraganda 2020-yil aprel oyi holatiga d unyoda 4.57 mlrd.dan ortiq inson internetdan faoldir. Bu degani dunyo aholisining 59 foizi demakdir. Davlatlar kesimida Xitoy, Hindiston va AQSH yuqori pog'onalardan joy olgan [2].

Hozirgi paytda mediata'limning nimaligi, maqsadi va vazifalari keng miqyosda o'rganilmoqda, salmoqli natijalarga erishilgan. “Wikipedia” elektron qomusida berilishicha, mediata'lim – ommaviy axborot vositalari – matbuot, televidenie, radio, kinematografiya, Internetni o'rganishdir. Bu boradagi bilimlar nafaqat soha uchun kadrlarni yetkazib berish uchun, balki axborot texnologiyalariga murojaat etadigan har bir insonda mediasavodxonlik – mediamatnlarni tahlil etish, baholash va yaratish ko'nikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari turli manbaalarda media ta'limga quyidagicha ta'rif beriladi: “Media ta'lim – global axborot sharoitida shaxsni media (OAV) tomonidan tarqatilyotgan axborotlarni tanlash, saralash, tanqidiy tahlil qilish va tanqidiy baholashga doir nazariy bilimlar majmui bilan qurollantirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim turlaridan biri”[3,59]

Bundan ko'rinib turibdiki hozirgi kunda, ayniqsa Global pandemiya sharoitida turli ommaviy axborot vositalari, Bundan ko'rinib turibdiki hozirgi kunda, ayniqsa Global pandemiya sharoitida turli ommaviy axborot vositalari, ayniqsa internet tarmog'i orqali qabul qilinayotgan ma'lumotlarga xushyor munosabatda bo'lishimiz kerak.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ularni kundalik hayotimiz bir qismiga aylanishi, nafaqat ijtimoiy hayotda balkim ta'lim sohasida ham bu sohaga e'tibor berishini talab qilmoqda. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llanishi bolalarda bilim olish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Media ta'limning mohiyati va xususiyatlari borasidagi fikrlar so'nggi yillarda pedagogik muhitda eng muzokarali masalaga aylandi. Professor A.V. Fedorov media ta'limni ommaviy axborot vositalari bilan muloqot madaniyatini shakllantirish uchun ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to'laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash hamda mediatexnika yordamida o'zo'zini ifodalashning turli shakllariga o'qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko'radi. U haqli ravishda televideniye, radio, video, kinematografiya, matbuot, internet, OAV imkoniyatlaridan faol foydalanish insonga mediamadaniyat tilini yaxshiroq tushunishga yordam berishini ta'kidlaydi. Demak, media ta'lim kishilarni axborotlashgan jamiyatdagi hayotga tayyorlash vazifasini bajarish uchun mo'ljallangan.[3]

Mohiyatiga ko'ra, fikrimiz ijtimoiy hayot, kundalik kasbiy faoliyat va bo'sh vaqtning zaruriy unsuri bo'lgan OAVlar faoliyatini yoshlar tomonidan ongli anglamoqligi, tushunishligi to'g'risida bormoqda. Shuni e'tirof etish kerakki, YUNESKOning rezolyutsiyasi va tavsiyalarida ham media ta'limning muhimligi va uni qo'llab-quvvatlash zarurati takror va takror ta'kidlangan. Tashkilotning 2002-yildagi tavsiyalarida "Media ta'lim har bir mamlakatdagi har bir fuqaroning o'zini erkin ifodalash va axborot olishga bo'lgan asosiy huquqining bir qismidir, u demokratiyani qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. Turli mamlakatlardagi Media ta'limga bo'lgan yondashuvlar va rivojlanishdagi farqlarni e'tirof etgan holda qayerda imkoni bo'lsa, milliy o'quv rejalari doiralarida, shuningdek, insonning butun hayoti davomidagi qo'shimcha norasmiy ta'lim va mustaqil bilim olish doiralarida uni joriy etish lozim", deb ta'kidlanadi.

Maktabgacha tarbiyadan boshlab to oliy ta'lim muassasasidagi ta'limning barcha bosqichlarida Media ta'limning ahamiyatini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kollejlarning o'quv dasturlari va o'quv rejalari uchun yo'nalish bo'yicha maxsus kurslarni kiritish zarur, bu ham alohida darslar shaklida, ham maxsus yoki majburiy kurslar ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Media ta'lim mamlakatimizning ta'lim sohasida, jumladan, xalq ta'limi tizimida munosib o'rin egallashi lozim. Bu vazifani bajarishda xalq ta'limi tizimidagi pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari faoliyatini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda Media ta'limni rivojlantirish istiqbollari XXI asrda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni o'ta dolzarb va ahamiyatli bo'lib turgan fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish muammolari bilan bevosita bog'liqdir. Hech kimga sir emaski masofaviy ta'lim har bir yoshdan axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishni talab etadi. Istaymizmi yoki yo'q, yoshlarimiz qo'lga kompyuter yoki smartfonlarni berishga majburmiz. Ularni doimiy ravishda nazorat qilishni iloji yo'q. Ammo, ularga qanday qilib to'g'ri axborotlardan foydalanishni tushuntira olsak maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Har bir axborot iste'molchisi axborotni tahlil qilishda quyidagi savollarni nazardan qochirmasligi lozim:

1. Taqdim etilayotgan media mahsulotni vasifasi qanday?
2. U qanday maqsadda yaratgan?
3. Uni kim yaratgan?
4. U qanday auditoriya uchun yaratilgan?
5. Uning asosiy mazmuni nimada?
6. U kim uchun foydali va qanday foyda keltiradi?
7. Menga bu axborot kerakmi?[3,60].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilish mumkinki, yoshlarimiz ongi bu bizning kelajagimizni belgilab beruvchi eng oliy kuchdir. Mamlakatimiz kelajagi uchun barchamiz, pedagoglar, ota-onalar mas'ul ekanimizni unitmasligimiz lozim.

References:

1. <https://www.pv.uz/oz/newspapers/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistanshahvkata-mirzieeva-olij-mazhlisu-2020>
2. <https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide/>
3. B.Namazov, M.Fayziyevava G'.Djalilov. Media va axborot savodxonligi".
4. 5.Pedagoglar uchun metodik qo'llanma. – T.: Baqtria press, 2018. – 160 b.
5. 6.Atabayeva, Guzal. "The sign content of "FFU" novel." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.1 (2022): 139-142.
6. 7.Пардаева, Нигора Қўйсинбоевна. "АНБАР ОТИН "ЯККА БАЙТЛАР" И ҲАҚИДААЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2020.